

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA RANGTASVIR O'QITISHNING BOSQICHMA-BOSQICH YONDASHUVI

Yusupova Shoxista Alimjanovna

Guliston davlat pedagogika instituti,
"San'atshunoslik" kafedra katta o'qituvchisi
E-mail: yusupovashoxista32@gmail.com

Karimjonova Durdona Jaloliddin qizi

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriyl san'at darslarida rangtasvirni bosqichma-bosqich o'qitish metodikasining nazariy va amaliy asoslari tahlil etilgan. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini, estetik didini va badiiy ifoda ko'nikmalarini shakllantirishda rangtasvir mashg'ulotlarining o'rni beqiyosdir. Shu sababli darslarni tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etish o'quvchilarning rangni idrok etish, uyg'unlashtirish va kompozitsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: tasviriyl san'at, rangtasvir, o'qitish metodikasi, bosqichma-bosqich yondashuv, ijodiy tafakkur, estetik did, badiiy ifoda, kompozitsiya, rang uyg'unligi, kuzatuvchanlik, ijodiy faoliyat, pedagogik texnologiya, interfaol usullar, tahlil bosqichi, san'at ta'limi.

STEP-BY-STEP APPROACH TO TEACHING PAINTING IN FINE ARTS CLASSES

Yusupova Shokhista Alimjanovna

Senior Lecturer, Department of Art Studies,
Gulistan State Pedagogical Institute
e-mail: yusupovashoxista32@gmail.com,

Karimjonova Durdona Jaloliddin kizi

Student, Gulistan State Pedagogical Institute

Annotation: This article analyzes the theoretical and practical foundations of the step-by-step methodology of teaching painting in fine arts classes. The relevance of the topic lies in the fact that, in modern educational practice, painting lessons play an invaluable role in developing students' creative thinking, aesthetic taste, and artistic expression skills. Therefore, organizing lessons systematically and gradually is of great importance for enhancing students' ability to perceive and harmonize colors, as well as to develop compositional thinking.

Keywords: fine arts, painting, teaching methodology, step-by-step approach, creative thinking, aesthetic taste, artistic expression, composition, color harmony, observation, creative activity, pedagogical technology, interactive methods, analytical stage, art education.

ПОЭТАПНЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ ЖИВОПИСИ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Юсупова Шохиста Алимжановна

*Старший преподаватель кафедры искусствоведения,
Гулистанский государственный педагогический институт
e-mail: yusupovashoxista32@gmail.com,*

Каримжонова Дурдона Жалолиддин кизи

Студентка Гулистанского государственного педагогического института

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и практические основы поэтапной методики обучения живописи на уроках изобразительного искусства. Актуальность темы заключается в том, что в современных образовательных условиях занятия по живописи играют исключительную роль в формировании у учащихся творческого мышления, эстетического вкуса и художественно-выразительных навыков. Поэтому системная и поэтапная организация уроков имеет важное значение для развития у учащихся способности воспринимать и гармонизировать цвет, а также для формирования композиционного мышления.

Ключевые слова: изобразительное искусство, живопись, методика преподавания, поэтапный подход, творческое мышление, эстетический вкус, художественная выразительность, композиция, цветовая гармония, наблюдательность, творческая деятельность, педагогическая технология, интерактивные методы, аналитический этап, художественное образование.

Rangtasvir mil. avv. yillarda paydo bo'lgan. U turli jorlarda turlicha ko'rinishda rivojlangan. Misol uchun, mil.avv. 30-40 ming yillarda eng qadimgi rangtasvir Ispaniya va Fransiya g'or devorlarida topilgan. Mil.avv. III-I ming yillarda esa rangtasvir qabrlarda ibodatxonalarda keng qo'llanilgan. O'rta asrlarga kelib esa rangtasvir diniy mavzularda, cherkov devorlari va qo'lyozmalarida ishlatilgan. Uyg'onish davri (XV-XVI) asrlarda rangtasvir rivojlanishning cho'qqisiga chiqadi. Bu asrlarda Leonarda Da Vinchi u 1452-yil 15-aprelda Anchiano, Italiyada tug'ilgan. Rafael Sanzio 1483-yil 6-aprelda tug'ilgan. Mikelanjelo Buonarroti esa 1475-yil 6-martda tug'ilgan. Shu kabi rassomlar XV-XVI asrlarda rangtasvirda ishlab irod qilishgan.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish va san'at asarlari orqali ularning dunyoqarashini kengaytirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, tasviriy san'at darslari o'quvchilarning nafaqat badiiy ko'nikmalarini, balki tafakkur, kuzatuvchanlik, estetik idrok

va ijodiy tasavvur kabi sifatlarini ham shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Tasviriy san'at yo'nalishidagi darslarning asosiy turlaridan biri bo'lgan rangtasvir mashg'ulotlari esa o'quvchilarning rangni sezish, uyg'unlashtirish, kompozitsion fikrlash va badiiy ifoda malakalarini rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Rangtasvirni o'qitish jarayoni murakkab, ammo o'ziga xos ijodiy jarayon bo'lib, u o'quvchini bosqichma-bosqich badiiy fikrlashga, kuzatish asosida tasvir yaratishga o'rgatadi. Shuning uchun ham bu fan bo'yicha o'qitish metodikasini ilmiy asosda ishlab chiqish, uni bosqichlar asosida tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bosqichma-bosqich yondashuv o'quvchi faoliyatining izchilligini ta'minlaydi, ularni asta-sekin murakkab ijodiy ishlarga tayyorlaydi va nazariy bilim bilan amaliy ko'nikma o'rtasida uzviy bog'liqlikni yaratadi.

Rangtasvir-tasviriy san'at turi hisoblanadi, bunda biror qattiq yuzada rangli ashyolarda, masalan bo'yoqlar yordamida yaratiladigan badiiy asar hisoblanadi. Rangli voqealikni badiiy tasvirlash va talqin qilish, tomashabinni fikri va tuyg'ulariga ta'sir etishning muhim vositasi, ijtimoiy mazmun va rang-barang g'oyaviy vazifalarga egadir.

Rangtasvirda ishlash jarayoni, avvalo maxsus tarshon nomli qog'ozga ishlanadi. Bunda har bir detal va buyumlarning yordamchi chiziqlar orqali shakli to'liq joylashtirilib umumiy ko'rinishi tasvirlanadi. So'ng ortiqchq chiziqlar o'chirilib, keying ya'ni rang berishga o'tiladi. Bu jarayon bosqichlar asosida bajariladi:

1. Och ranglardan foydalanib qog'ozning barcha joyiga rang beriladi.
2. Soya-yorug' joylari ajratilib topiladi.
3. Tasvirdagi eng to'q joylari aniqlanib shaxsiy soya beriladi.

Rangtasvir mashg'ulotlarini bosqichma-bosqich tashkil etishda o'quv jarayonini tizimli va metodik yo'l bilan olib borish, ya'ni tayyorgarlik bosqichi, tasvir yaratish bosqichi va yakuniy tahlil bosqichlarini izchil amalga oshirishni anglatadi. Har bir bosqich o'ziga xos maqsad, metod va vositalarga ega bo'lib, ularning uyg'unlashuvi natijasida o'quvchida rangtasvir asoslari bo'yicha chuqur bilim va amaliy malakalar shakllanadi.

Tasviriy san'at darslarida rangtasvirni bosqichma-bosqich o'qitish o'quvchilarning badiiy tafakkuri va ijodiy faoliyatini rivojlantirishda samarali natijalar beradi. Bunday yondashuv orqali o'quvchilar rang, shakl, kompozitsiya va tasviriy ifoda vositalarini izchil o'zlashtiradilar, bu esa ularning estetik didi va badiiy madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bosqichma-bosqich metod asosida darslarni tashkil etish quyidagi ijobiy natijalarni berdi:

1. O'quvchilarning rangni idrok etish, uyg'unlashtirish va ifodalash ko'nikmalari yaxshilandi.
2. Rangtasvir mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqish va ijodiy faollik ortdi.
3. Darslarda mustaqil ishlash, kuzatish va tahlil qilish malakalari shakllandi.
4. O'quvchilar o'z ishlariga tanqidiy yondashish, tahlil qilish va o'zini baholashni o'rgandilar.
5. Raqamli texnologiyalar, vizual namoyishlar va interaktiv usullar qo'llanganda, o'qitish jarayonining samaradorligi yanada oshdi.

Shuningdek, o'qituvchilar tomonidan rangtasvirni o'qitishda tayyorgarlik, bajarish va yakuniy tahlil bosqichlarini metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Har bir bosqichda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, individual qobiliyatlari va ijodiy fikrlash darajasini hisobga olish zarurligi aniqlangan.

Xulosa shuni ko'rsatadiki, rangtasvirni bosqichma-bosqich o'qitish metodikasi o'quvchilarda san'at asarlarini yaratish jarayonini ongli, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda bajarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tasviriy san'at darslarida rangtasvirni bosqichma-bosqich o'qitishda o'quvchilarning badiiy tafakkuri, estetik idroki va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik jarayondir. Ushbu metodika dars jarayonini tizimli tashkil etish, o'quvchilarda kuzatuvchanlik, rangni sezish, kompozitsion fikrlash va mustaqil ijod qilish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Rangtasvirni o'qitishda tayyorgarlik, bajarish va yakuniy tahlil bosqichlarini aniq belgilash, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish darsning sifatini oshiradi. Bunday yondashuv o'quvchilarning san'atga bo'lgan mehrini kuchaytiradi, ularda ijodkorlik va estetik fikrlashni rivojlantiradi.

Demak, rangtasvirni bosqichma-bosqich o'qitish metodikasi zamonaviy san'at ta'limi uchun nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u o'quvchilarning estetik tarbiyasini yuksaltirish va ijodiy faoliyatini samarali rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish rangtasvir o'qitish samaradorligini yanada oshirmoqda. O'quvchilar bilan bosqichma-bosqich ishlash, ularga individual yondashuvni qo'llash, rangni idrok etish psixologiyasini inobatga olishda bunday jarayon metodik asosini tashkil etadi. Bunday yondashuv o'quvchilarni nafaqat chizish texnikasiga, balki ranglar orqali fikrni badiiy ifodalash madaniyatiga ham o'rgatadi.

Shu bois, rangtasvirni bosqichma-bosqich o'qitish metodikasini ishlab chiqish va takomillashtirish zamonaviy san'at ta'limining eng dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Ushbu yo'nalishdagi izlanishlar orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, estetik baholash va ijodiy izlanish ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, o'qituvchilarning metodik mahoratini oshirish imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.P.Jumaboyev, Rangtasvir. "Ilm Ziyo Zakovat" Toshkent-2023.
2. R.Z.Xayrov, Dekorativ rangtasvir. Guliston-2022.
3. Ibadullaeva , Z. ., & Jumaboev , N. . (2025). UZBEK NATIONAL ART AND ITS SCHOOLS. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 2(2), 127–130. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/yoiti/article/view/68532>
4. Юсупова III. Tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlarida qo'yiladigan zamonaviy pedagogik talablar //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные

проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 267-273.

5. Юсупова, Шохиста Алимжановна, and Наби Пардабоевич Жумабоев. "ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ЎРГАТИШ." Science and Education 2.2 (2021): 460-464.

6. Inoyatov, O. (2025). TEKISLIKLARNING O‘ZARO PARALLELLIGI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(S/1), 495–500. <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI1Y2025N76>

7. Юсупова Ш. Tasviriy san’at to‘garak mashg‘ulotlarida qo‘yiladigan zamonaviy pedagogik talablar //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 267-273.

8. Pardaboyevich J. N. O ‘QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARNING O ‘RNI //WORLD OF SCIENCE. – 2023. – Т. 6. – С. 87-90.

9. Жумабоев, Наби. "THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences 4 (2024).

10. Alimjanovna Y. S. TOOLS AND CRITERIA OF COMPOSITION IN THE CREATIVE PROCESS OF FINE ARTS CLASSES OF UNIVERSITY SCHOOLS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2024. – Т. 5. – №. 02. – С. 48-58.

11. Bolbekovich, Nusharov B. "The Role and Significance of Fine Art in Preparing Future Fine Art Teachers for Independent or Creative Activity." World Bulletin of Social Sciences, vol. 22, 28 May. 2023, pp. 235-239.

12. Norboy, Boriboyeva Dilrabakhon. "DEVELOPMENT OF STUDENTS'GRAPHIC COMPETENCE IN TRAINING ENGINEERING GRAPHICS." International Journal of Pedagogics 3.12 (2023): 145-147.

13. Odiljanovna, Yakubova Nafisa, Yusupova Shohista Alimjanovna, and Nusharov Bobir Bolbekovich. "Problem Teaching Technology. Types of Teaching." International Journal on Orange Technologies 3.5 (2021): 68-72.